

# XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



2020-yil yanvar-noyabr oylari  
holatiga

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI



Viloyat statistika  
boshqarmasiga 2020-yil  
yanvar-noyabr oylarida  
jismoniy va yuridik  
shaxslardan 437 ta  
murojaatlar kelib tushgan



To'g'ridan-to'g'ri  
kelib tushgan yozma  
murojaatlar 385 tani  
tashkil etgan



Boshqarmaning  
ishonch telefoni orqali  
og'zaki murojaatlar 3 ta  
kelib tushgan




Boshqarma  
rahbariyatining shaxsiy  
va sayyor qabullaridagi  
og'zaki murojaatlar  
49 tani tashkil etgan

# Murojaatlarni ko'rib chiqish holati




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 433 tasiga chora ko'rildi, 2 tasi tushuntirildi, 2 tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.



## Murojaatlar turlari bo'yicha

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 7,8% (34 ta) jismoniy shaxslar va 92,2% (403 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan





# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili:

2020 yil yanvar-noyabr holatiga



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni 106 tasi (jamiga nisbatan 24,3%) Urganch shahriga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, Xiva tumanidan 95 ta (21,7%), Urganch tumanidan 66 ta (15,1%), Qo'shko'pir tumanidan 35 ta (8,0%), Xiva shahridan 24 ta (5,5%), Yangiariq tumanida 19 ta (4,3%), Gurlan tumanidan 16 ta (3,7%), Yangibozor tumanidan 16 ta (3,7%), Bog'ot tumanidan 15 ta (3,4%), Hazorasp tumanida 14 ta (3,2%), Xonqa tumanidan 11 ta (2,5%), Shovot tumanidan 7 ta (1,6%), Tuproqqal'a tumanidan 6 ta (1,4%) hamda boshqa hududlardan 7 ta (1,6%) murojaatlar kelib tushgan.



## Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch telefonlari:

**(62) 227-78-91**

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:

**(62) 224-65-17**



Boshqarma veb sayti : [xorazmstat.uz](http://xorazmstat.uz)

Elektron pochta manzili: [xorazmstat@umail.uz](mailto:xorazmstat@umail.uz)

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi